

Avtomobil yo'llari Davlat qo'mitasi raisi va raisning birinchi o'rinbosari tayinlandi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 18 martdagi PF-4991-sonli Farmoni bilan Abdurahmon Abduvaliev O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi raisi etib tayinlandi.

Abdurahmon Abdulhaevich Abduvaliev ayni paytga qadar Avtomobil yo'llari qurish va foydalanish davlat-aktiyadorlik kompaniyasi ("O'zavtoyol" DAK) boshqaruvi raisi sifatida [faoliyat ko'rsatib](#) kelgan edi.

Eslatib o'tamiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 fevraldagi [Farmoni](#) bilan "O'zavtoyol" DAK faoliyati tugatilib, uning negizida Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi tashkil etildi.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan imzolangan yana bir hujjat, ya'ni 2017 yil 18 martdagi PQ-2846-sonli qaroriga binoan Shuhrat Nazarov O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari etib tayinlandi.

Shuhrat Baxtiyorovich Nazarov ayni paytga qadar "O'zavtoyol" DAK boshqaruvi raisi o'rinbosari sifatida [faoliyat ko'rsatib](#) kelgan.

Prezidentning 2014 yil 14 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi [qarori](#) bilan tasdiqlangan qo'mita tashkiliy tuzilmasiga asosan, yangi tashkil etilgan qo'mita raisining birinchi o'rinbosari - moliya-iqtisodiyot, iqtisodiy tahlil va istiqboldagi rivojlanish, sanoatni rivojlantirish, xalqaro aloqalar hamda tashqi iqtisodiy aloqalar masalalariga rahbarlik qiladi.

"O'zavtoyol" matbuot xizmati